

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
32	60712400	Avtomobilsozlik va traktorsozlik		+	Muxandis-Mexanik

Yo'nalish tavsifi

Avtomobilsozlik va traktorsozlik bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va texnika sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, avtomobilsozlik va traktorsozlikdagi ishlab chiqarish jarayonlari, avtomobillar va traktorlarning ishchi jarayonlarini o'zlashtirish va tadqiq qilish, ularning qism va agregatlarini loyihalash, ishlab chiqarishning samarali jarayonlarini ta'minlashga yo'naltirilgan metodlar va vositalar majmuini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohaslarining avtomobillar, traktorlar, ularning agregat va qismlari, ishlab chiqarish, ekspluatasiya ob'ektlarida ishchi jarayonlarni o'zlashtirish va tadqiq qilish, loyihalash jarayonlarini tahlil qilish, mahsulot sifatini ta'minlash va sertifikatsiya metodlarini qo'llash, kechadigan ishchi jarayonlari bo'yicha modellarni qo'llash, muhandislik hisoblari, komp'yuter texnologiyalari va dasturlanishi, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash strategiyasini belgilash va qo'llash, texnik ekspluatatsiyasi va prinsiplarini tuzish hamda loyihalash kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.